

ADABIY MEROSNI SAQLASH VA TARG‘IB ETISHDA  
MEMORIAL MUZEYLARNING O‘RNI



*Karimjonova Mohinur Odiljon qizi*

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn  
institute San’atshunoslik va Amaliy san’at fakultiteti  
Muzeyshunoslik: Muzey menejmenti va madaniy turizm  
yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, memorial muzeyida adabiy merosni yoritish jarayonini ilmiy tahlil qilish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Memorial muzeyning adabiy merosni tizimli o‘rganish, ekspozitsiya va targ‘ibot jarayonlarini tahlil qilish orqali adib merosini yanada samarali yoritish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi. Ish natijalari uy-muzeylar faoliyatini modernizatsiya qilish, milliy madaniyatni rivojlantirish va keng jamoatchilikni adabiy meros bilan tanishtirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Muzeylarning tarixiy-madaniy ahamiyatini inobatga olgan holda, ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o‘rganish, faoliyat samaradorligini tahlil qilish hamda nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish zamonaviy muzeyshunoslik fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Memoireal muzeylar, adabiy meros, madaniy meros, qo‘lyozmalar, xatlar, ekskursiya, fond, ekskursiya, ilmiy-ma’rifiy muassasa.

**Аннотация:** В данной статье проводится научный анализ процесса освещения литературного наследия в мемориальных музеях и разрабатываются предложения по его совершенствованию. Посредством системного изучения литературного наследия в мемориальном музее, а также анализа процессов экспозиции и пропаганды, автор формулирует научно-практические рекомендации по более эффективному представлению творчества писателя. Результаты работы имеют практическую значимость для модернизации деятельности домов-музеев, развития национальной культуры и ознакомления широкой общественности с литературным наследием. Учитывая историко-культурную значимость музеев, изучение этапов их формирования и развития на научной основе, анализ эффективности деятельности и разработка теоретико-методологических основ являются одними из актуальных научных направлений современного музееведения.

**Ключевые слова:** Мемориальные музеи, Литературное наследие, Культурное наследие, Рукописи, Письма, Экскурсия, Фонд, Научно-просветительское учреждение.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of the process of highlighting literary heritage in memorial museums and develops proposals for its improvement. By systematically studying the literary heritage within the memorial museum and analyzing the processes of exhibition and promotion, the author formulates scientific and practical recommendations for more effective presentation of the writer’s legacy. The results of the research hold practical significance for modernizing the activities of house-museums, developing national culture, and introducing the literary heritage to the general public. Given the historical and cultural importance of museums, studying their formation and development stages on a scientific basis, analyzing their operational efficiency, and developing theoretical-methodological foundations are among the most relevant scientific directions in modern museology.


**Keywords:** Memorial museums, Literary heritage, Cultural heritage, Manuscripts, Letters, Excursion, Collection, Scientific-educational institution.

Moddiy va ma’naviy merosni saqlashda bugungi kundagi muzeylarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular o‘zining bugungi faoliyati bilan avvalgi muzeylardan tubdan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosni yangi qirralarini ochar ekan, millataro do‘stlik va bag‘rikenglik printsipiga ham alohida e’tibor bermog‘i lozim. Chunki bu sa’yi-harakatlar etnomadaniy kelishmovchiliklarni oldini olish va boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat hislarini uyg‘otishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy-madaniy merosni saqlash, uni avlodlarga yetkazishda, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalarini qaror toptirish hamda yoshlarimizni vatanparvarlik, tarixiy madaniy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda muzeylarning o‘rnini alohida e’tirof etish zarur.

Memorial muzeylar adabiy merosni saqlash, o‘rganish va keng jamoatchilikka targ‘ib etishda bebaho madaniy-ma’rifiy maskanlardir. Ular adiblar yashagan muhitni (uy-muzeylar) va nodir qo‘lyozmalarni saqlab, yosh avlodda milliy g‘urur hamda adabiyotga muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi, shuningdek, madaniy turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Memorial muzeylarning adabiy merosni asrashdagi asosiy o‘rni quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Adiblar hayot kechirgan uylar, ish stollari, shaxsiy buyumlari va kutubxonalarini orqali ularning yashash tarzi va ijodiy jarayonini namoyish etadi. Qo‘lyozmalar, xatlar, birinchi nashrlar va suratlar kabi noyob materiallarni kelajak avlod uchun asraydi. Adabiy kechalar, muzey darslari va ko‘rgazmalar orqali adiblar merosini targ‘ib qiladi. Muzey xodimlari adib hayoti va ijodiga oid yangi ma‘lumotlarni izlab topadi va ilmiy muomalaga kiritadi. O‘zbekistonda G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi adiblarning uy-muzeylari milliy adabiyotni targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiy muzeylar milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni saqlash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat yozuvchi va shoirlarimizning hayoti va



ijodi bilan tanishtiradi, balki turizmni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Adabiy muzeylar sayyohlar uchun jozibador maskanlardan biri bo‘lib, ularga yozuvchi va shoirlarimizning shaxsiy ashyolari, qo‘lyozmalari va boshqa eksponatlar orqali milliy adabiyotimiz bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Bu esa madaniy hamda adabiy turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Adabiy muzeylarda tematik turizm juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u tashrif buyuruvchilarga yozuvchilar hayoti, ijodi va asarlarning tarixiy muhiti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Tematik turizm – muayyan mavzuga bag‘ishlangan, ma‘lum bir qiziqish yoki sohaga yo‘naltirilgan sayohat turidir. Adabiy muzeylar esa, yozuvchilar hayoti va ijodi, shuningdek, badiiy asarlar muhiti bilan bog‘liq joylarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, adabiy muzeylar – tematik turizmning muhim qismi hisoblanadi. Adabiy muzeylarning tematik turizmdagi ahamiyati shundan iboratki, tarixiy va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Adabiy muzeylar yozuvchilarning shaxsiy buyumlari, qo‘lyozmalari, kitoblari va arxiv materiallarini saqlaydi. Bu joylar yozuvchilarning hayoti va ijodiy jarayonini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Adabiy sayohat yo‘nalishlarini shakllantirib beradi. Masalan, Rossiyada Pushkinning Boldino usadbasi, Lev Tolstoyning Yasnaya Polyanski va Dostoyevskiy muzeyi adabiy yo‘nalishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekistonda Alisher Navoiy muzeyi, Abdulla Qodiriy xonasi va Cho‘lpon, Zahriddin To‘ra, Uvaysi, Erkin Vohidov uy muzeylari milliy adabiy merosni o‘rganishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup>Hasanova.F.ADABIY MUZEYLARNING TURIZM TARG‘IBOTIDAGI O‘RNI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 5 Issue: 03 | 2025 ISSN: P –2181-2306, E –2181-23. b-14. <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/512/479>

Adabiy turizm tematik turizmning kichik turlaridan biridir. So‘nggi paytlarda mavzuli turizm tobora dolzarb bo‘lib bormoqda, bu birinchi navbatda turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish bilan bog‘liq. Ichki oqimlarning mumkin bo‘lgan o‘sishi, rivojlanish istiqbollari sayyohlar va sayohatchilarga xizmat ko‘rsatishning yangi shakllari, texnologiyalari va mazmunini izlashni talab qiladi. MDH davlatlaridagi



adabiyot muzeylariga doir tadqiqotlar olib borgan Ye.A.Yachmenov, N.N. Alekseyevna, G. Ye. Vladimirovna, M. V. Zayseva, A. N. Balash, Ye. N. Mastenitsalarning kabi olimlarning ilmiy ishlarida adabiy memorial muzeylarning tashkil etilishi va ularning tarixiy faoliyati nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu adabiyotlarda sobiq Ittifoq hududidagi uy muzeylarni adabiy merosni muzeylashtirishga moslashtirish jarayonlari tadrijiy jihatdan tizimlashtirilgan. Adabiy ziyoratlar va ekspeditsiyalar- Sovet davrida adabiy ekspeditsiyalar va ziyoratlar rivojlanib, yozuvchilar yashagan va ijod qilgan hududlarga safarlar tashkil etilgan; Zamonaviy tendensiyalar-Interaktiv va raqamli texnologiyalar, Muzeylar virtual ekskursiyalar, 3D namoyishlar va mobil ilovalar orqali yanada jozibador bo‘lmoqda. Masalan, Toshkentdagi adabiy muzeylar ayrim ekspozitsiyalarini onlayn tomosha qilish mumkin. Adabiy festivallar va tadbirlar- har yili turli mamlakatlarda adabiy festivallar va forumlar o‘tkaziladi. O‘zbekistonda “Toshkent xalqaro adabiy forumi”, “Sharq taronalari” kabi tadbirlar adabiy turizmni qo‘llab-quvvatlaydi. Adabiy turizm va gastronomiya-Adabiy joylarga sayohat qilish bilan birga, mahalliy oshxona taomlarini tatib ko‘rish imkoniyati ham jozibadorlik kasb etmoqda<sup>2</sup>.

Adabiy muzeylar madaniy turizmning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, quyidagi jihatlar bilan sayyohlar oqimini jalb etadi: Milliy brend sifatida xizmat qiladi – Mashhur yozuvchilar va shoirlar nomiga bag‘ishlangan muzeylar mamlakatning madaniy imijini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, Is‘hoqxon Ibrat, Uvaysiy, Xamza Xakimzoda Niyoziy, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy yoki Cho‘lpon uy-muzeylari sayyohlarni jalb qiluvchi muhim madaniy ob‘yektlar qatoriga kiradi. Ko‘ngilochar va ta’limiy turizmni uyg‘unlashtiradi – Tashrif buyuruvchilar nafaqat ma’naviy boylikka ega bo‘ladilar, balki muzeylarda interaktiv va innovatsion ko‘rgazmalar yordamida o‘quv jarayonini qiziqarli shaklda o‘tadilar.

<sup>2</sup>Hasanova.F.ADABIY MUZEYLARNING TURIZM TARG‘IBOTIDAGI O‘RNI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR. International Journal of Intellectual and Cultural HeritageVolume: 5Issue: 03| 2025ISSN: P –2181-2306, E –2181-23. b-15-16. <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/512/479>

Ekskursiya va festivallar orqali madaniy sayyohlikni jonlantiradi – Adabiy muzeylarda turli an’anaviy va zamonaviy festivallar, kitobxonlik kechalari, ma’rifiy seminarlar o’tkazilishi xorijiy sayyohlarning qiziqishini oshiradi<sup>3</sup>.

Adib yoki ijodkor shaxsning hayoti va faoliyati bilan bevosita bog‘liq tarixiy-madaniy makonda tashkil etilgan ilmiy-ma’rifiy muassasalardir. Ularning asosiy vazifasi adabiy merosni jamlash, ilmiy jihatdan tavsiflash, saqlash va keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Muzeyshunoslik nazariyasida memorial muzeylar shaxsga yo‘naltirilgan ekspozitsion model sifatida talqin qilinadi, bunda eksponat nafaqat moddiy ob’jekt, balki tarixiy xotira va ma’naviy meros tashuvchisi sifatida baholanadi<sup>4</sup>. O‘zbekiston tajribasida memorial muzeylar adabiy merosni saqlashning muhim institutsional shakli bo‘lib, ular milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va adabiy jarayonni tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi o‘zbek adabiyoti namoyandalari merosini tizimli ravishda jamlash va ilmiy muomalaga kiritishda markaziy ilmiy maskan hisoblanadi. Muzey fondlarini komplektatsiya qilish jarayoni ilmiy asoslangan reja va konsepsiyaga tayanadi. Muzeyshunoslikda bu jarayon “fond siyosati” tushunchasi bilan izohlanadi. Adabiy memorial muzeylarda jamlash obyekti sifatida quyidagilar ko‘riladi: qo‘lyozmalar va avtograflar; shaxsiy arxiv materiallari (kundaliklar, yozishmalar); nashr etilgan asarlar; fotosuratlar va audiovizual materiallar; shaxsiy buyumlar va memorial predmetlar.

Fondga qabul qilingan har bir eksponat ilmiy tavsifdan o‘tkaziladi. Ilmiy pasportlash quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: predmetning nomi va turi; yaratilgan sanasi va muallifi; kelib chiqish manbai (provenans); fizik holati; ilmiy izoh. Hujjatlashtirish jarayonida muzey kataloglari va elektron bazalar shakllantiriladi. Bu jarayon eksponatlarning ilmiy muomalaga kiritilishini ta’minlaydi hamda tadqiqotchilar uchun ishonchli manba yaratadi. Adabiy meros asosan qog‘oz asosidagi materiallardan iborat bo‘lgani sababli, ularning saqlanishi maxsus sharoitni talab etadi. Xalqaro muzey amaliyotida harorat 18–22°C, nisbiy namlik esa 45–55% darajada ushlab turilishi tavsiya etiladi. Saqlash jarayonlari quyidagilarni qamrab oladi: kislotasiz qog‘oz va arxiv qutilaridan foydalanish; yorug‘likdan himoyalash; biologik zararkunandalardan saqlash; restavratsiya va konservatsiya ishlari. Restavratsiya jarayonida hujjatning asl holatini maksimal darajada saqlab qolish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Bu ilmiy-etik me’yorlar bilan tartibga solinadi.

Yozma manbalar kolleksiyasi muzey ashyolarining quyidagi turlariga ajratiladi: qo‘lyozma va bosma, shaxsiy hamda muassasa materiallari, vaqtli nashrlar, kitoblar,

<sup>3</sup>Hasanova.F.ADABIY MUZEYLARNING TURIZM TARG‘IBOTIDAGI O‘RNI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 5 Issue: 03 | 2025 ISSN: P –2181-2306, E –2181-23. b-16. <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/512/479>

<sup>4</sup> Юренева, Т. Ю. Музееведение: учебник для высших учебных заведений. — Москва: Академический проект, 2003. — 560 с.

blanklar. Tarixiy ixtisoslikdagi muzeylarda ular tematik va ixtisoslik tamoyillari bo'yicha ham bo'linadi. Foto manbalar tayyorlanish texnikasiga ko'ra negativlar, pozitivlar, dagerrotoplarga, tematik tamoyil bo'yicha - fotoportret, sujetli fotosuratlar va boshqalarga tasniflanadi. Muzeyshunoslikda fotohujjatlaning ma'lum muzey manbalari turiga oidligi haqida yagona fikr mavjud emas. Ayrim muzeylarda ular mustaqil guruhni tashkil etadi, boshqasida yozma manbalarning tasviriy fondidan o'rin oladi, yana birida ular bilan birlashtirilib, hujjatli fondga kiritiladi<sup>5</sup>. Ma'lumki, muzeylarning asosiy vazifasi ashyolarni to'plash, saqlash va namoyish etishdan iborat. Bugungi kunda muzeylar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'z eksponatlarining saqlanishini ta'minlashlari mumkin. Zero, aniq hisobga olish muzey boyliklarini ishonchli saqlash va ularga egalik qilish huquqini kafolatlaydi<sup>6</sup>.

Muzey o'z daromadlarini bir necha omillar orqali oshirishi mumkin. Kirish chiptalarini, madaniy-ma'rifiy xizmatlar narxini toifalash, uzoq muddatli bolalar, o'quvchilar, oilaviy abonementlar kiritishi mumkin. Muзей ashyolari ko'rinishidagi suvenirlarni tayyorlash, turistlar uchun axborot-savdo markazi yaratib, unda buyumlarni sotish, ishlab chiqaruvchilar bilan shartnomalar tuzib, muzeyning emblemasi, eksponatlardan nusxalar tayyorlab savdoga qo'yishi mumkin. Agar muhofaza etish kafolatlansa, muzey eksponatlaridan ayrimlarini turli firmalarga reklama uchun ijaraga berishni ham qo'llash joiz. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, muzeylarda an'anaviy hunarmandchilik yarmarkalarini tashkil etish, ustalarning o'zlari yasayotgan ashyolarning tayyorlanish texnologiyasini namoyish etishlari va sotishlari yaxshi natija bermoqda<sup>7</sup>.

Muzey fondlarining maqsadi muzey boyliklarini saqlanishini ta'minlash, ularni yemirilish, shikastlanish, o'g'irlanishidan himoya qilish, shuningdek, kolleksiyani ko'rsatish va o'rganish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Fondlarni saqlash ishlari fond saqlov xonalarida, ekspozitsiyada, ashyoning muzey ichida va tashqarisida harakatlanishi davrida amalga oshiriladi. Fondlarni saqlashni tashkil etish haqidagi qat'iy qoidalar umumdavlat me'yorlari bo'yicha aniqlanadi va bunga barcha muzeylar amal qiladi. Lekin, har bir muzey fondi o'zining spetsifikasiga ega: u fondlarning strukturasi va tarkibida, ashyolarning miqdori hamda ularning saqlanganlik darajasida, muzey binosi va fond xonalarining qurilishidagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi.

---

<sup>5</sup> Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. / O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: "Turon-Iqbol", 2018.-28-b.

<sup>6</sup> F. Ahmedov. MUZEYLARDA TURIZIMNI TUTGAN O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal. b-489. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5. [file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20(1).pdf)

<sup>7</sup> F. Ahmedov. MUZEYLARDA TURIZIMNI TUTGAN O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal. b-490. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5. [file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20(1).pdf)

Shuning uchun, asosiy me’yoriy hujjatlarga qo‘shimcha tarzda, muzeylarda ichki foydalanish uchun fondlarni saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqiladi.

Zamonaviy muzeyshunoslikda “saqlash” deganda, eksponatlarning uzoq vaqt saqlanishi uchun sharoit yaratib berish, tushuniladi. Bunga eksponatlarning fizikaviy, kimyoviy va texnologik xususiyatlari inobatga olinadi<sup>8</sup>.

Memorial muzeylarda ekspozitsiya tashkil etish jarayoni nafaqat predmetlarni namoyish qilish, balki ularni ilmiy talqin qilishni ham o‘z ichiga oladi. Ekspozitsion konsepsiya adibning hayot yo‘li, ijodiy evolyutsiyasi va tarixiy davr kontekstini ochib berishga xizmat qiladi. Zamonaviy memorial muzeylarda interaktiv vositalar, multimediya texnologiyalari va raqamli kataloglardan foydalanish kengayib bormoqda. Bu esa adabiy merosni keng auditoriyaga yetkazish imkonini oshiradi. So‘nggi yillarda adabiy merosni raqamlashtirish jarayoni dolzarb masalaga aylandi. Qo‘lyozmalarni yuqori aniqlikda skanerlash, elektron kataloglar yaratish va onlayn platformalarda taqdim etish ilmiy integratsiyani kuchaytiradi. Raqamlashtirish - fond xavfsizligini ta’minlaydi; masofaviy tadqiqot imkonini yaratadi; merosning global ilmiy muomalaga kirishini ta’minlaydi. Muzeylarda adabiy merosni jamlash va saqlash jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli ilmiy faoliyatdir. U komplektatsiya, tavsiflash, konservatsiya, ekspozitsiya va raqamlashtirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar muzeyshunoslik, arxivshunoslik va manbashunoslik metodologiyasi asosida amalga oshiriladi. Natijada memorial muzeylar nafaqat tarixiy xotirani saqlovchi maskan, balki ilmiy-tadqiqot markazi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tajribasi Mazkur muzey respublikadagi eng yirik adabiy-ilmiy markazlardan biri bo‘lib, uning fondida o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti namoyandalariga oid minglab eksponatlar saqlanadi. Fond tarkibiga quyidagilar kiradi: XV–XIX asrlarga oid qo‘lyozma nusxalar; toshbosma (litografiya) nashrlar; adiblarning shaxsiy arxivlari; avtografalar va xatlar; nodir kitoblar; rassomlar tomonidan ishlangan portretlar; haykaltaroshlik namunalari.

Qo‘lyozmalar maxsus kislotasiz qutilarda, harorat va namlik nazorati ostida saqlanadi. Ekspozitsiyada esa tematik-prinsipial yondashuv qo‘llanilib, adabiy jarayon tarixiy davrlar kesimida yoritiladi.

Abdulla Qodiriy uy-muzeyi tajribasi Memorial uy-muzey shaxsiy makonning autentik muhitini saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir. Muzey fondida –“O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarining qo‘lyozma parchalar; shaxsiy yozuv stoli va kitob javoni; oilaviy fotosuratlar; gazeta-jurnal sahifalari; yozishmalar; qatag‘on davriga oid arxiv hujjatlari mavjud.

Bu yerda jamlangan ashyolar nafaqat adib ijodini, balki XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitni ham yoritadi. Memorial predmetlar (mebel, uy-ro‘zg‘or

---

<sup>8</sup> Muзейshunoslik. O‘quv qo‘llanma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-43-b.

buyumlari, shaxsiy kiyimlar) biografik rekonstruksiya uchun muhim manba hisoblanadi<sup>9</sup>.

Memorial muzeylarda adabiy merosni saqlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ekspertiza va autentifikatsiya — ashyolarning haqiqiylikni aniqlash. Inventarizatsiya — maxsus fond kitoblariga qayd etish. Ilmiy tavsif — predmetning provenansi, materiali, sanasi va kontekstini aniqlash. Konservatsiya va restavratsiya — zararlangan qo‘lyozmalarni tiklash. Raqamlashtirish — yuqori aniqlikdagi skaner va elektron katalog yaratish<sup>10</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muzeylar jamiyatning madaniy xotirasi sifatida bebaho ahamiyatga ega. Ular ming yillik tarixni, qadimgi buyumlarni, san‘at asarlarini va xalqning ma‘naviy merosini kelajak avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda texnologiyalarning rivojlanishi muzey ishiga tubdan yangiliklar olib kirdi. Merosni saqlashning an‘anaviy usullari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlar qo‘llanila boshladi. Bu yondashuvlar eksponatlarni yanada ishonchli saqlash, ularning ilmiy o‘rganilishini kengaytirish va zarar ko‘rgan buyumlarni tiklashda yuqori samaradorlikni ta‘minlamoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hasanova.F.ADABIY MUZEYLARNING TURIZM TARG‘IBOTIDAGI O‘RNI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 5 Issue: 03| 2025 ISSN: P –2181-2306, E – 2181-23. b-14. <https://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/512/479>.

2. Юренева, Т. Ю. Музееведение: учебник для высших учебных заведений. — Москва: Академический проект, 2003. — 560 с.

3. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-28-b.

4. F. Ahmedov. MUZEYLARDA TURIZIMNI TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal. b-489. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №5. [file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/muzeylarda-turizimni-tutgan-o-rni-va-uni-rivojlantirish%20(1).pdf)

<sup>9</sup> International Council of Museums (ICOM). ICOM Code of Ethics for Museums. — Paris: ICOM, 2017. — 38 p. (Muzey faoliyatining xalqaro axloqiy me‘yorlari, fondlarni saqlash va jamoatchilik bilan ishlash prinsiplari.)

<sup>10</sup> Дьячков, А. Н. Хранение музейных фондов. — Москва: Книга, 1991. — 256 с. (Muzey fondlarini saqlash, konservatsiya va mikroiklim talablari.)

5. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘lma. / O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. - T.: “Turon-Iqbol”, 2018.-43-b.

6. International Council of Museums (ICOM). ICOM Code of Ethics for Museums. — Paris: ICOM, 2017. — 38 p. (Muzey faoliyatining xalqaro axloqiy me‘yorlari, fondlarni saqlash va jamoatchilik bilan ishlash prinsiplari.)

7. Дьячков, А. Н. Хранение музейных фондов. — Москва: Книга, 1991. — 256 с. (Muzey fondlarini saqlash, konservatsiya va mikroiklim talablari.)